


Amir Temur tarixiga oid arabcha bir manba haqida

Abu-l-Mahosin Jamol ad-Din Yusuf ibn Tag'riberdi (1410-1470) taniqli misrlik tarixchi olim va adib. U Ibn Hajar al-Asqaloni, Badriddin al-Ayniy, Ibn Arabshoh kabi o'z davrining yetuk olimlaridan ta'lim oldi. Tarix ilmini esa o'z davri tarixchilarining eng kattasi Taqiy ad-Din al-Maqriziydan o'rgandi. Ibn Tag'riberdi tomonidan yozilgan 12 ta tarixiy kitoblar ma'lum.

"To'liqdan" keyingi sof yakunlovchi chashma" asari muallif o'zi yashagan davrgacha bo'lgan tarixiy ma'lumotlarni o'rganishda, xususan, Amir Temur va u haqidagi ma'lumotlar keltirilganligi bilan ham ahamiyatli hisoblanadi. Asarda Amir Temurning bolalik va o'smirlik paytidagi o'ziga xos hislatlari, siyosiy va harbiy raqobatda g'olib chiqish sharoitlari, amir Husayn bilan ittifoq tuzilishi, Samarqandni poytaxtga aylantirishi, Oltin O'rda bilan munosabatlarning keskinlashuvi sabablari yoritilgan. Amir Temur saltanati hududlarining Hindistondan to Iroqqa qadar, Xitoydan Shomga qadar tadrijiy kengayishi yozilgan.



Shu bilan birga Xitoyga safarbarlik va O'trordagi noqulay ob-havo va u bilan bog'liq sharoitlar batafsil

bayon qilingaligi ushbu kitobning qiyosiy-tahliliy manba sifatidagi ahamiyatini oshiradi.

O`zR FA Temuriylar tarixi davlat muzeyi.